

TASVIRIY SAN'AT JANRLARINI XUSUSIYATLARI.

Dadajonova Inoyatxon Qobil qizi

Farg'onan viloyati Yozyovon tumani 16 – sonli umumta'lim maktabi

9 – "D" sinfo'quvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada tasviriy san'at turlari janrlari va xususiyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at nazariyasi, tur va janrlari, qalamtasvir texnologiyasi, akvarel, guash, tempera, moy bo'yoq texnologiyasi.

Hozirgi kunda barcha fanlar qatori amaliy fanlarning ham o'rni beqiyos. Shunday ekan biz san'atning turlari shakllari haqida yoritishni afzal ko'rdik. San'atning turlari juda ko'p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. San'atkor real borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo'lmay qoladi. San'atkoring vazifasi oliyroqdir.

Tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro aloqa ishlarini rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekan. Bu o'zaro bog'lanish qaysilar ekan?

1. Tasviriy faoliyatga ta'lif-tarbiya ishining muhim bo'lagi, deb qarash hamda rasm chizish, loy bilan ishslash, applikatsiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqa, bog'lanishni doimo diqqat-e'tiborda tutish lozim. Ya'ni tevarak-atrof bilan tanishtirish, musiqa mashg'ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyat uchun qiziqarli hodisalar va voqealarni tanlashga yordam beradi.

2.Tasviriy faoliyatning barcha turlari tevarak-atrof, hayotni obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini hisobga olmoq zarur. Ya'ni rasm chizish - predmet va voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda, applikatsiya - rangda, siluet ravishda. Shuningdek, har biri o'ziga xos tasvir texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rangtasvir usulida, loy plastik ravishda, applikatsiya - qog'ozdan qirqish va alohida qismlardan tuzish.

3.Dasturda tasviriy faoliyat turlari oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ularning o'zaro aloqada ekanlidir. Masalan, bolalar rang bilan rasm chizish bilan bir vaqtida, applikatsiya bilan ham tanishib

boradilar.

4. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog'lanish tarbiyachiga rasm chizish, loy, applikatsiya bo'yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kichik guruhga doiraviy shakllarni o'rgatishda, oldin tayyor doira shakllarini applikatsiyada bergen ma'qul, so'ng esa rasm chizish mashg'ulotlarida bergen ma'qul.

5. Tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi bog'lanish ma'lum bir mavzudagi mashg'ulotlar asosida ham bolishi mumkin. Masalan, rus xalq eftagi «Bo'g'irsoq»ni bolalar ham chizishi, ham applikatsiya, ham loydan yasashi mumkin. Bu turdag'i takrorlanish mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarining xilma-xil tasvirining yangi usul va yo'llari bilan tanishadilar.

6. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini to'g'ri rejalshtirishda, mashg'ulotlar o'rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o'rtasida bog'lanish vujudga keladiki, buning natijasida yangi malaka va ko'nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma'lum ketma-ketlik va bog'lanish vujudga keladi. Masalan, «Qushlar» rnavzusi asosida olib borilgan mashg'ulotlar jarayonida bolalar don cho'qiyotgan qushni loydan yasashni, shoxda o'tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy qushni qanday qilib qog'ozdan qirqib olishni bilib oladilar.

7. Shuningdek, tasviriy faoliyati bo'yicha ishni rejalshtirishda faqatgina ularning turlari o'rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay, balki har bir turdag'i mashg'ulotlar o'rtasida ham bog'lanish o'rnatish va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy ishlardan keyin mazmunli ishlarni rejalshtirish lozim.

Tasvirlangan voqealarda shartli elementlar keng o'rinni egallyaydi. Dekorativ san'at buyumlari birmuncha erkin, ijodkor fantaziyasiga bog'liq holda yaratiladi va eng avvalo, tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomoniga ishlanadigan rangli naqsh va bo'rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymatov B. "Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari" darslik Toshkent
2. 1995 yil. 3. Boymetov B "Portret qalam tasvir" Toshkent 2001 yil. 4. Tojiev
3. B. "Qalam tasvir asoslarini o'rganish" Toshkent 1994 yil.